



YOSHLARNING KITOBXONLIK SALOHIYATINI OSHIRISH BORASIDA CHORA-TADBIRLAR

Zebiniso Ulug'bekova

Samarqand davlat universiteti,
Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar
fakulteti, 3-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Respublikamizda bugungi kunda yoshlarga beriladigan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, biz bu imkoniyatlardan foydalanayotganimiz, biz yoshlar Ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning diniga sadoqatli farzand bo'lib ulg'ayishimiz uchun ta'bir joiz bo'lsa, avvalo qalbimiz va ongimizga mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarurligi, barcha sohalarda jahon bilan bellasha oladigan yoshlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Zero, ma'naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo'shilmaydi, aniqrog'i, jaholat ta'siriga berilmasligi haqida.*

***Kalit so'z:** ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim, madaniyat, tarix, fazilat, yuksak, kitob, inson.*

“Barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda” O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Dunyo va insoniyat yaralibdiki, yaxshilik va yomonlik, yovuzlik va ezgulik, jaholat va ma'rifat bir-biri bilan kurashib keladi. Ba'zida yovuzlik, ba'zida ezgulik g'alaba qozonadi. Inson qalbida ham ana shunday fikrlar, g'oyalar bor, bular jaholat va ma'rifatdir.

Biz yoshlar Ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning diniga sadoqatli farzand bo'lib ulg'ayishimiz uchun ta'bir joiz bo'lsa, avvalo qalbimiz va ongimizga mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Vatanni sevgan insondan hech qachon yovuzlik chiqmagan. Buyuk bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Z.M.Bobur, Ulug'bek Mirzolarining ham Vatanga sadoqati, o'zbek xalqiga bo'lgan mehri asrlar davomida sayqal topgan. O'z yurtiga sadoqat va muhabbat tuyg'usi vatanparvarlikning nishonasidir. Jaholat g'aflatga, loqaydlik beparvolikka, e'tiborsizlik tubanlikka yo'l ochadi. Natijada insonga vatanga daxldorlik tuyg'usi yo'qolib, har xil tahdidlar yoshlar ongini zaxarlashiga zamin yaratadi. Har xil tahdidlarga beparvolik bilan qaramaslik, ularga qarshi ma'rifat bilan javob bera olish chinakam jasoratdir.

Respublikamizda bugungi kunda yoshlarga beriladigan e'tibor Davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, biz bu imkoniyatlardan qanday foydalanyapmiz? O'zbekiston Respublikasi aholisining oltmish foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zamirida har



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

tomonlama barkamol – jismonan sogʻlom, aqlan yetuk, nafaqat koʻplab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta boʻlgan kasb-hunarlarni egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekanligi tabiiydir.

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb soʻrasangiz, farzandlarimizning taʼlim va tarbiyasi deb javob beraman, deb Prezidentimiz bejiz aytmagan. Yurtboshimiz yana shunday soʻzlarni aytganlarki: “Alhamdulillah, hammamiz musulmonmiz. Biz juda koʻp joylarda jaholatga qarshi maʼrifat, islom dinini oʻrganish, oʻrgatish tashabbusi bilan chiqyapmiz. Islom - bu faqat nurli hayot. Islomni niqob qilib, terrorchi boʻlish, boshqa oqimlarga kirish – bu Oʻzbekistonga yarashmaydi!”.

Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning dunyoqarashi, oʻzligini anglab yetishi, maʼnaviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Maʼnaviy-axloqiy inson ota-onasi, opa-singillari, aka-ukalari, qarindoshlari, xullas, butun oila aʼzolari, qoʻni-qoʻshnilari, mahalla-kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakati, xalqi farovonligi haqida qaygʻuradi, hamnafas boʻladi. Umuman olganda, Oʻzbekistonda jamiyatni tubdan yangi demokratik asoslarda qurish, islohotlarni amalga oshirish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, maʼnaviyati bilan bevosita bogʻliqdir.

Respublikamiz Prezidentining yurtimizda taʼlim sohasini tubdan isloh qilish bilan bogʻliq holda aytgan quyidagi gaplari fikrimiz dalilidir: “Taʼlimning maqsadi voyaga yetmaganlarni mahalla-kuyning koʻz oldida saqlash, yurish-turishi, kiyinishi, oʻzini tutishini nazorat qilish yoki yoshlar oʻrtasida oʻz joniga qasd qilish, erta tugʻruq, turli oqimlarga qoʻshilib qolish kabi vajlar bilan ularni “doimiy infantil yosh bola” statusida saqlab qolish emas. Taʼlim tizimining maqsadi sipo, oq koʻylak, qora shim kiygan olomni yetishtirish ham emas”.

“Taʼlim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan oʻzgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini taʼminlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, oʻzgarishni oʻrganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem boʻlishini tarix ming bir marta isbotlab bergan. Shunday ekan hozir bizga taʼlimning yangi islohoti kerak”. Yurtboshimiz rahbarligida “Yoshlarga oid davlat siyosati” ning qabul qilinganligi, unda asosiysi yoshlarning taʼlim olishiga alohida oʻrin ajratilganligi, yoshlar maʼnaviy olamini boyitish maqsadida “Kitobxonlik madaniyatini oshirish” toʻgʻrisidagi qarorning qabul qilinishi hamda qaror ijrosi



sifatida respublika miqyosida kitobxonlar bellashuvining o'tkazilishi, g'oliblarga qimmatbaho sovg'alar, hatto avtomobillarning taqdim etilishi fikrimizning dalilidir.

Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxassislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo'lgan ijodiy fikrlovchi, ma'naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Barcha sohalarda jahon bilan bellasha oladigan yoshlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Zero, ma'naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo'shilmaydi, aniqrog'i, jaholat ta'siriga berilmaydi. Ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo'lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasratlari bayonidan, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan odamlar tasviridan qanchalik mamnunlik tuygan bo'lsangiz, aksincha, qo'rqqoq va xiyonatkor, johil va nodon, ishyoqmas va tanbal, loqayd va madaniyatsiz, ma'naviyatsiz kimsalarga duch kelganda ichingizda bir afsus-nadomat va ranjishlar paydo bo'ladi, albatta. Bu hol Sizning ko'nglingizda o'zbekona milliy-ma'naviy hayot tarzimizga mos va munosib fazilatlar shakllanib borayotganidan darak beradi. Hadisi sharifda aytilganidek, «... agar siz yaxshi narsalarni ko'rib xursand bo'lsangiz va, aksincha, yomon narsani ko'rib ranjisangiz, haqiqiy mo'min ekansiz». Bu yaxshi insonga xos hislat belgisidir.

Kitobxonlik madaniyatining yuksalishida o'z ustida ishlashning, mustaqil va ijodiy faoliyatning ahamiyati beqiyos. Shuningdek, ulug'ajdodlarning hayoti va ijodidan saboq olish, ular yozib qoldirgan hayotiy hikmatlardan bahramand bo'lish ham lozim.

«Men o'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman», degan edi XX asrda yashab o'tgan ulug'lardan biri. Kitob – insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq belgisi, insoniyat yaratmishlari ichra takrorlanmas mo'jizadir.

Erkin Vohidovning quyidagi to'rtligida ham kitobga bo'lgan mehrni yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Qancha intilganman, kursi qo'ymasdan,

Dadam jovonidan olguncha kitob.

Qancha izlanganman, murg'ak fikrning,

Minglab savoliga topguncha javob.

Ma'rifat - kishilarning ong-bilimini, ma'daniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya hamdir. Demak, jaholat bilan ma'rifat bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini siqib chiqaradigan tushunchalardir. Ma'rifat insonni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi. Sharq donishmandlari aytganidek: "Eng kata boylik- bu aql-zakovat va ilm, eng kata



meros-bu yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik- bu bilimsizlikdir !” Shu sababli xammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinalam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzluksiz xayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Xulosa, o’rnida shuni aytish joizki, bu bebaho gaplardan ko’rinib turibdiki har birimiz Vatanimiz rivoji, kelajagi uchun befarq bo’lmasligimiz, daxldorligimizni his etishimiz, o’z fikrimiz va g’oyamizga tayanishimiz va bu g’ayritabiiy kuchlarga biz o’z bilimimiz, milliy mafkuramiz bilan har doim, har soniya qarshi kurashishimiz lozim. Zero, kitobga mehr berish, dunyoqarashini kengaytirish insonga ma’naviy yuksalish bag’ishlaydi. Kitob–ustoz, kitob–yo’lboshchi, kitob–sirdosh, kitob–nadima, hamdam. U dunyoda tabiat va inson, tafakkur va odamzod, jamiyat va fuqaro, sabab va oqibat muvozanatini me’yorga solib turuvchi eng qudratli quroldir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari. Toshkent “Ma’naviyat” 2008-yil 74-bet.
2. Abdurahmanova, M. (2021). LEGAL FUNDAMENTALS OF LAND RESOURCES OF USANCE TO ACHIEVE ECONOMIC EFFICIENCY. Экономика и финансы (Узбекистан), (Спецвыпуск 4), 187-189.
3. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
4. Abdurahmanova, M., & Nurmatova, S. (2022). QORA RANG TALQINI HAQIDA. FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 74-78.
5. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
6. ОТАЖОНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.
7. Ergashevna, S. N. (2021, November). Traditions of khorezm caliphate and their peculiarities. In Archive of Conferences (pp. 120-123).
8. Kayumov, N., Uzokov, J., Alyavi, B., Bekzod, K., Madjidov, I., & Mukhamedova, M. (2022, June). Circulating exosomal biomarkers in patients with coronary artery disease and metabolic syndrome. In European journal of clinical investigation (Vol. 52). 111 RIVER ST, HOBOKEN 07030-5774, NJ USA: WILEY.
9. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
10. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 488-497.